

---

## QO'SHTEPA TUMANIDA "ROADSHOW" TAQDIMOTLARI O'TKAZILDI



Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan Farg'ona viloyatida xususiylashtirilishi belgilangan davlat aktivlari jumladan, korxonalaridagi davlat ulushlari, bo'sh turgan davlat mulki ob'ektlari va sotilishi belgilangan yer maydonlari to'g'risida tadbirkorlar va investorlar uchun Qo'shtepa tumani hokimligining majlislar zalida "Roadshow" (taqdimot) o'tkazildi.



Tadbir davomida viloyatda xususiylashtirilishi belgilangan davlat aktivlari va sotilishi belgilangan yer maydonlari to'g'risida tadbirkorlar, va investorlar uchun "E-AUKSION (<https://e-auksion.uz/home>)" onlayn savdo platformasi orqali ro'yxatdan o'tish, ERI kalit olish, hisobni to'ldirish, savdoda qatnashish uchun ariza berish, onlayn savdolarda qatnashish tartiblari xaqida tushunchalar berildi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2022-05-20 18:11:36